

O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI

O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI HUZURIDAGI BADIY TA'LIM YO'NALISHLARIDA PEDAGOG VA MUTAXASSIS KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH HAMDA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI

**O'zbekiston Badiy akademiyasi huzuridagi Badiy ta'lif yo'nalishlarida pedagog va
mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish
markazining malaka oshirish kursi tinglovchilariga**

E S L A T M A

Toshkent-2025

Ixtisoslashtirilgan san'at mакtab va mакtab internatlari hamda bolalar musiqa va san'at maktablarining pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish jarayonini tashkil etish tartibi

Pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish jarayoni O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorlini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son qarorlariga, Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" 2017-yil 1-dekabrdagi 957-son, "O'zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta'lif yo'nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 21-iyundagi 385-son qarorlari, shuningdek, Badiiy ta'lif yo'nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat ta'lif talablari hamda Markaz Ustavi asosida tashkil etiladi.

Pedagog kadrlarining **uzlusiz malakasini oshirish** jarayonlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

muqobil malaka oshirish;

ta'lif dasturlari asosida oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlarida bevosita o'qish.

Muqobil malaka oshirish shakllari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

t/r	Muqobil shakl nomi		Davriyligi
Ilmiy-ijodiy faoliyat			
1	Darslik va o'quv qo'llanmaga mualliflik qilish	<i>Yakka mualliflikdagi darslik (kamida 1 ta)</i>	<i>Oxirgi 3 yilda</i>
		<i>Yakka mualliflikdagi o'quv qo'llanma (kamida 1 ta)</i>	<i>Oxirgi 3 yilda</i>
2	Doktorlik ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyani himoya qilish	<i>Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyani himoya qilish</i>	<i>Oxirgi 3 yilda</i>
		<i>Fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyani himoya qilish</i>	<i>Oxirgi 3 yilda</i>
3	Xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-ijodiy anjuman (seminar, konferensiya, simpozium va boshqa)larda ma'ruza bilan ishtirop etish	<i>xalqaro miqyosidagi ilmiy-ijodiy anjuman (seminar, konferensiya, simpozium va boshqa)larda ma'ruza bilan ishtirop etish (kamida 6 ta)</i>	<i>Oxirgi 3 yilda</i>
		<i>Respublika miqyosidagi ilmiy-ijodiy anjuman (seminar, konferensiya, simpozium va boshqa)larda ma'ruza bilan ishtirop etish (kamida 6 ta)</i>	<i>Oxirgi 3 yilda</i>
4	Ilmiy-tadqiqot natijalari asosida xalqaro indeksatsiyalangan bazalarda (Scopus, Web of Science) e'tirof etilgan jurnallarda mutaxasisligi bo'yicha maqola nashr etish (kamida 3 ta)	<i>ilmiy-tadqiqot natijalari asosida xalqaro indeksatsiyalangan bazalarda (Scopus, Web of Science) e'tirof etilgan jurnallarda mutaxasisligi bo'yicha maqola nashr etish (kamida 3 ta)</i>	<i>Oxirgi 3 yilda</i>

	mutaxasisligi bo‘yicha maqola nashr etish		
5	Akademik ilmiy unvoniga ega bo‘lgan	<i>O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi ilmiy unvoniga ega bo‘lgan</i>	-
6	O‘zbekiston Respublikasining faxriy unvonlari sohiblari	<i>“O‘zbekiston Respublikasi xalq rassomi” faxriy unvoni sohiblari</i> <i>“O‘zbekiston Respublikasi xalq ustasi” faxriy unvoni sohiblari</i>	-

Muqobil malaka oshirish shakllaridan ixtiyoriy birini amalga oshirgan pedagog kadrlarga mutaxassisligi bo‘yicha tinglovchilarga mahorat darsi o‘tkazishi asosida **malaka sertifikati Attestatsiya komissiyasining qarori asosida taqdim etiladi.**

Malaka oshirish kursini tashkil etish va o‘tkazish tartibi

Badiiy ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisining buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tashkil etiladi.

Malaka oshirish kursi doirasida badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan bilim, ko‘nikma va malakalar yangilanadi, sohaga oid bilimlar chuqurlashtiriladi.

Pedagoglar malakasini oshirish kurslari o‘quv rejasining namunaviy tuzilmasi asosida ishlab chiqilgan **144 soat** hajmdagi o‘quv dasturlari bo‘yicha amalga oshiriladi. Bunda, o‘quv dasturining **144 soati to‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) malaka oshirish shaklida** ishdan ajragan holda amalga oshiriladi Malaka oshirishning bevosita shaklida bir haftadagi o‘quv yuklamasining eng yuqori hajmi 36 soatni tashkil etadi.

Badiiy ta’lim yo‘nalishlaridagi pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslaridagi o‘quv mashg‘ulotlari:

ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminar, yakka tartibdagi mashg‘ulot, tajriba almashish darsi, trening, interfaol mashg‘ulotlar va boshqa shakllarda olib boriladi;

tasdiqlangan o‘quv rejalarini hamda dasturlariga mos ravishda tuzilgan va bir nechta o‘quv fannii (modullarini) o‘z tarkibiga olgan o‘quv rejalarini asosida tashkil etiladi.

Badiiy ta’lim yo‘nalishlaridagi qayta tayyorlanadigan va malaka oshiradigan pedagog va mutaxassis kadrlarining lavozimlar va mutaxassisliklar nomenklaturasi Badiiy akademiya tomonidan belgilanadi.

Tinglovchilarining hujjatlari mashg‘ulotlar boshlanishining **1-kunida qabul qilinadi**.

Malaka oshirish tinglovchisi sifatida talabgorlar Markazga **quyidagi hujjatlarni** taqdim etadi:

- malaka oshirish kursiga yuborilganligi to‘g‘risidagi ta’lim muassasasining bo‘yrug‘idan ko‘chirma;
- obyektivka;
- pasport nusxasi.
- avval malaka oshirgan bo‘lsa malaka sertifikati.

Malaka oshirish kurslariga tinglovchilarni qabul qilish to‘g‘risidagi buyruq kurslar boshlanishi sanasidan **3 kun** mobaynida rasmiylashtiriladi.

Malaka oshirish kurslari boshlanganidan keyin uch kun mobaynida kelmagan tinglovchilar, kelmaslikning sabablaridan qatiy nazar, kurslarga qo‘yilmaydi.

Tinglovchining qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga o‘z vaqtida kelmaganlikning hujjat bilan tasdiqlangan uzrli sababalari bo‘lganda ularga o‘qishning tegishli yo‘nalishi (mutaxassisligi) bo‘yicha keyingi kurslarda qayta tayyorlash va malakasini oshirishdan o‘tish huquqi beriladi.

Tinglovchilarning o‘quv jarayonini tashkil etish va o‘tkazish

Auditoriyada o‘tkaziladigan barcha mashg‘ulotlar turlari **80 daqiqa** davom etadi, o‘quv mashg‘ulotlari oralig‘idagi tanaffus **10 daqiqani** tashkil etadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri (bevosita) malaka oshirish davrida uzsiz sabablar bilan **18 soat** va undan ko‘p miqdorda **mashg‘ulotlarga qatnashmaganligi** uchun kurslarning tinglovchilari Markaz rahbarining buyrug‘i bilan tinglovchilar safdan chiqariladi va bu haqdagi axborot O‘zbekiston Badiiy akademiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligiga, shuningdek tinglovchining asosiy ish joyiga yuboriladi.

Mashg‘ulotlarda qatnashmaganligi uchun kurslardan chetlashtirilgan tinglovchilar attestatsiyadan o‘tmagan deb hisoblanadi.

Hujjat bilan tasdiqlangan uzrli sabablarga ko‘ra 18 soat va undan ko‘p hajmda mashg‘ulotlarda qatnashmagan tinglovchilar safdan chiqariladi va ularga navbatdagi kurslarda ishtirok etishlariga ruxsat beriladi.

Kirish testi – markaz xodimlari tomonidan qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining 1-3 kunlarida shaklida o‘tkaziladi. Kirish test sinovlarida har bir tinglovchiga 30 tadan savollar beriladi hamda malaka oshirish yo‘nalishi doirasidagi dastlabki bilim, ko‘nikma va malakalari tashhis etiladi.

Sinovlarni o‘tkazish tartibi

Pedagog va mutaxassis kadrlar 100 ballik tizim asosida baholanadi va umumiy bahoga nisbatan 56 foiz va undan yuqori natijaga erishgan tinglovchilar Yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan deb hisoblanadi.

Sinovlar ikki bosqichda o‘tkaziladi:

1. O‘zlashtirish ko‘rsatkichi
2. Test sinovlari
3. Bitiruv malakaviy (kursni tugatish) ijodiy ishi himoyasi

4. O‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini baholash tartibi

Mutaxassislik modullari bo‘yicha tinglovchilarga berilgan vazifalar yuzasidan fanning professor-o‘qituvchilari tomonidan baholanadi.

Bu jarayon quyidagicha amalga oshiriladi:

Tasviriy san'at (turlari bo'yicha) yo'nalishi bo'yicha:

№	Fan nomi	Qo'yiladigan ball
1	Pedagogning mutaxassislik fanini o'qitish metodikasi	1-30 ballgacha
2	Chizmatasvirni o'qitish metodikasi	1-30 ballgacha
3	Rangtasvirni o'qitish metodikasi	1-30 ballgacha
4	Dekorativ rangtasvir	1-30 ballgacha

Amaliy san'at san'at (turlari bo'yicha) yo'nalishi bo'yicha:

№	Fan nomi	Qo'yiladigan ball
1	Pedagogning mutaxassislik fanini o'qitish metodikasi	1-30 ballgacha
2	Amaliy san'nat o'qitish metodikasi	1-30 ballgacha
3	Chizmatasvir va rangtasvirni o'qitish metodikasi	1-30 ballgacha
4	Dekorativ rangtasvir	1-30 ballgacha

Grafika (turlari bo'yicha) yo'nalishi bo'yicha:

№	Fan nomi	Qo'yiladigan ball
1	Pedagogning mutaxassislik fanini o'qitish metodikasi	1-30 ballgacha
2	Grafikani o'qitish metodikasi	1-30 ballgacha
3	Chizmatasvir va rangtasvirni o'qitish metodikasi	1-30 ballgacha
4	Dekorativ rangtasvir	1-30 ballgacha

Dizayn (turlari bo'yicha) yo'nalishi bo'yicha:

№	Fan nomi	Qo'yiladigan ball
1	Pedagogning mutaxassislik fanini o'qitish metodikasi	1-30 ballgacha
2	Dizayn o'qitish metodikasi	1-30 ballgacha
3	Chizmatasvir va rangtasvirni o'qitish metodikasi	1-30 ballgacha
4	Dekorativ rangtasvir	1-30 ballgacha

Haykaltaroshlik (turlari bo'yicha) yo'nalishi bo'yicha:

№	Fan nomi	Qo'yiladigan ball
1	Pedagogning mutaxassislik fanini o'qitish metodikasi	1-30 ballgacha

2	Haykaltaroshlik o‘qitish metodikasi	1-30 ballgacha
3	Chizmatasvir va rangtasvirni o‘qitish metodikasi	1-30 ballgacha
4	Dekorativ rangtasvir	1-30 ballgacha

Mutaxassislik fanlari bo‘yicha tinglovchilar bilimini baholashda professor-o‘qituvchilarga qaydnomaga beriladi. Qaydnomaga fanlardan o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari qayd etiladi va Yakuniy attestatsiya komissiyasi raisining o‘ribbosari hamda fan o‘qituvchisi tomonidan imzolanadi.

5. Test sinovlarini o‘tkazish tartibi

“Ijtimoiy modullar”, “Umumkasbiy modullar” va “Mutaxassislik” o‘quv modullari bo‘yicha tinglovchilarning bilim va ko‘nikmalari test sinovi orqali sinovdan o‘tkaziladi.

Ushbu test sinovlarida asosiy urg‘u mutaxassislik fanlariga beriladi (test savollarining asosiy qismi mutaxassislik fanlaridan tuziladi) va quyidagicha baholanadi:

Nº	Test soni	To‘planishi zarur bo‘lgan maksimal ball	O‘tish bali	Berilgan vaqt (daqqaq)
1.	30	30	17	30

Test sinovlarida 56% (17 ball) dan kam natija ko‘rsatgan tinglovchilar bitiruv malakaviy (kursni tugatish) ijodiy ishining himoyasiga kiritilmaydi.

6. Bitiruv malakaviy (kursni tugatish) ijodiy ishi himoyasini o‘tkazish tartibi

Quyidagi fanlar bo‘yicha tinglovchilarning bilimini baholash Yakuniy attestatsiya komissiyasi huzurida hisobot-ko‘rgazma (Bitiruv malakaviy ishi himoyasi) shaklida o‘tkaziladi:

Tasviriyl san’at (turlari bo‘yicha) yo‘nalishi bo‘yicha:

Nº	Fan nomi	O‘tkazish shakli	Qo‘yiladigan ball
1	Kompozitsiya darslarida o‘quvchilarni badiiy tafakkurini oshirish va ularni ijodga yo‘naltirish	Amaliy (hisobot-ko‘rgazma)	1-40 ballgacha

Amaliy san’at san’at (turlari bo‘yicha) yo‘nalishi bo‘yicha:

Nº	Fan nomi	O‘tkazish shakli	Qo‘yiladigan ball
1	Kompozitsiya darslarida o‘quvchilarni badiiy tafakkurini	Amaliy	1-40 ballgacha

	oshirish va ularni ijodga yo‘naltirish	(hisobot-ko‘rgazma)	
--	---	---------------------	--

Grafika (turlari bo‘yicha) yo‘nalishi bo‘yicha:

№	Fan nomi	O‘tkazish shakli	Qo‘yiladigan ball
1	Kompozitsiya darslarida o‘quvchilarni badiiy tafakkurini oshirish va ularni ijodga yo‘naltirish	Amaliy (hisobot-ko‘rgazma)	1-40 ballgacha

Dizayn (turlari bo‘yicha) yo‘nalishi bo‘yicha:

№	Fan nomi	O‘tkazish shakli	Qo‘yiladigan ball
1	Kompozitsiya darslarida o‘quvchilarni badiiy tafakkurini oshirish va ularni ijodga yo‘naltirish	Amaliy (hisobot-ko‘rgazma)	1-40 ballgacha

Haykaltaroshlik (turlari bo‘yicha) yo‘nalishi bo‘yicha:

№	Fan nomi	O‘tkazish shakli	Qo‘yiladigan ball
1	Kompozitsiya darslarida o‘quvchilarni badiiy tafakkurini oshirish va ularni ijodga yo‘naltirish	Amaliy (hisobot-ko‘rgazma)	1-40 ballgacha

San’atshunoslik (turlari bo‘yicha) yo‘nalishi bo‘yicha:

№	Fan nomi	O‘tkazish shakli	Qo‘yiladigan ball
1	San’atshunoslikni o‘qitish metodikasi	Nazariy (Bitiruv malakaviy ishi)	1-40 ballgacha

San’atshunoslik (turlari bo‘yicha) yo‘nalishi bo‘yicha:

№	Fan nomi	O‘tkazish shakli	Qo‘yiladigan ball
1	Muzeyshunoslikni o‘qitish metodikasi	Nazariy (Bitiruv malakaviy ishi)	1-40 ballgacha

3. Tasviriy san’at (turlari bo‘yicha), Grafika (turlari bo‘yicha), Amaliy san’at (turlari bo‘yicha), Haykaltaroshlik (turlari bo‘yicha), Dizayn (turlari bo‘yicha) yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkaziladigan hisobot-ko‘rgazmada tinglovchi berilgan topshiriq bo‘yicha

ishlagan (yasalgan) kompozitsiya asarini ko‘rgazmaga qo‘yadi va Yakuniy attestatsiya komissiyasi baholaydi. Hisobot-ko‘rgazmaga qo‘yilgan va baholangan ishlar Markaz fondida saqlanadi.

San’atshunoslik (turlari bo‘yicha) hamda Muzeyshunoslik (turlari bo‘yicha) yo‘nalishlarida tinglovchilar belgilangan mutaxassislik moduli yuzasidan bitiruv malakaviy ishini yozma shaklda himoya qiladi. Bitiruv malakaviy ishi mavzusi va ilmiy rahbari Markaz direktorining tegishli buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

4. O‘tkazilgan yakuniy attestatsiya qaydnomasida quyidagilar aks ettiriladi:

Nº	Tinglovchining ism sharifi	O‘zlashtirish ko‘rsatkichi	Test natijasi	Kasbiy (ijodiy) imtihon	Jami
1	-	30	30	40	100
...					

Malaka oshirish yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturlarini to‘liq o‘zlashtirgan va Attestatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan kurs tinglovchilariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 21-iyundagi 385-sон qarorining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan davlat namunasidagi sertifikat beriladi.